

## **ZAMONAVIY HIKOYACHILIKDA SYUJET YARATISH MAHORATI**

*(Xayriddin Sulton hikoyalari asosida)*

**Matyokubova Go'zal Solih Qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xayriddin Sulton hikoyalari badiiy tahlili amalga oshirilgan bo'lib, unda asarning mavzu va g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi hamda til va uslub xususiyatlari o'r ganiladi. Hikoyaning asosiy mazmuni inson taqdiri, ijtimoiy adolat masalalari va ruhiy kechinmalarni aks ettirishdan iborat. Shuningdek, asarda qo'llangan ramziy va ifodaviy vositalar, yozuvchi uslubining o'ziga xosligi ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** G'ulomgardish, hikoya tahlili, badiiy obraz, kompozitsiya, mavzu, g'oya, adabiy uslub, ramz, badiiy tasvir.

Har qanday badiiy asar qahramonlarning o'zaro munosabatlari va harakatlari orqali rivojlanadi. Syujet asarning asosiy dinamik qismi bo'lib, undagi voqealar tizimi hayotiy hodisalardan olinadi. Shu bois, yozuvchi syujet yaratishda real voqealarga asoslangan holda badiiy haqiqatni shakllantiradi. N.G.Chernishevskiy ta'kidlaganidek, syujetsiz badiiylik ham mavjud bo'lolmaydi.

Badiiy asarda syujet, konflikt va kolliziya yozuvchi uslubi va mahoratini baholashning muhim mezonlaridandir. Yozuvchi ijod jarayonini tushunish uchun uning badiiy dunyosiga nazar tashlash zarur. XX asr o'zbek adabiyotida realistik hikoya janrini shakllantirishda muhim o'rin tutgan Abdulla Qahhorning ijodiy uslubi bunga yorqin misoldir. Adib asar yaratish jarayonida ikki turdag'i daftardan foydalangan: biri umumi yozuvlar, ikkinchisi esa muayyan asar uchun to'plangan materiallar. Uning so'zlariga ko'ra, asar yozish jarayoni faqatgina syujet shakllangandan keyin boshlanadi.

Ko'plab mumtoz adiblarning mashhur asarlari real hayotiy voqealarga asoslangan. Viktor Gyugoning "Xo'ranganlar" romani bir yepiskop hayotidan ilhomlangan bo'lsa, Turgenevning "Mumu" hikoyasi ham real voqealar asosida yozilgan. Gogolning "Shinel" asari esa do'stlaridan eshitgan latifa ta'sirida yaratilgan. Demak, badiiy asarning hayotiy

haqiqatga asoslanishi uning ommalashishi va o'lmas asarga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xayriddin Sulton ham ijodiy jarayonda real voqealardan ilhomlangan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U "Boburnoma" asarini mutolaa qilar ekan, tarixiy shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur haqida keng izlanishlar olib borgan. Yozuvchi Bobur Mirzoning hayotiga oid voqealarni chuqur o'rganib, o'z hikoyalari va qissalarida badiiy talqin etgan.

Masalan, "Oy botgan pallada" hikoyasining syujeti Boburning "Boburnoma" asaridagi real voqealarga asoslanadi. Hikoyada Boburning 19 yoshli navqiron yigitligi, murakkab va fojeaviy hayotiy sinovlari aks ettirilgan. Ayniqsa, Noyon Ko'kaltoshning o'limi Bobur uchun og'ir zarba bo'lgani tasvirlanadi. Hikoyada qahramonning ichki kechinmalari, insoniy dard va iztiroblari ifodalangan.

Yana bir misol – "Nuqta" hikoyasida Boburning umrining so'nggi yillaridagi yetuklik davri tasvirlangan. Boburning qattiqqa'l podshoh bo'lishi bilan birga, dardu hasratlari bor inson ekanligi ichki monologlar orqali ochib berilgan. Shuningdek, tarixiy voqealar qahramon kechinmalari bilan uyg'un holda ifodalangan.

X.Sultonning syujet yaratish mahorati uning voqealarni hayotiy asosda shakllantirishidan dalolat beradi. Asar syujetining ishonarliligi uchun yozuvchi real voqealarni chuqur o'rganib, ularni badiiy talqin qiladi. Yozuvchi hikoyalarida voqealar dinamik rivojlanadi, syujet unsurlari aniq ko'zga tashlanadi va yechim salmoqli ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Grajdan mudofaasi" va "Nomus" hikoyalarida syujet keskin rivojlanib, kitobxonning qiziqishini oshiradi.

Syujet asarni jonlantiruvchi asosiy element bo'lsa, konflikt esa uning harakatlanishiga turki bo'luvchi vositadir. Konfliktning kuchliligi syujetning ta'sirchanligini belgilaydi. Hayotning o'zi ziddiyatlarga to'la bo'lgani sababli, badiiy asarlarda ham qarama-qarshiliklar muhim o'rinn tutadi.

Xayriddin Sultonning "G'ulomgardish" hikoyasi inson taqdiri, hayotning o'zgaruvchanligi va qismatning oldindan noma'lumligi kabi mavzularni chuqur yoritadigan asarlardan biri hisoblanadi. Hikoya insonning hayot yo'lida duch keladigan

sinovlari, ularning natijasida shakllanadigan ruhiy kechinmalar va ichki kurashlarni tasvirlash orqali falsafiy mazmun kasb etadi.

Asarning nomi – "G‘ulomgardish" – allaqachon hikoyaning asosiy g‘oyasini olib beradi. "Gardish" so‘zi taqdirning uzlucksiz harakati, hayotning oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan burilishlari bilan bog‘liq tushunchalarni anglatadi. Bu atama asar mazmuni bilan hamohang bo‘lib, qahramon taqdiridagi o‘zgarishlar va uning hayotga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Hikoya bosh qahramonning o‘z shaxsiy tajribalaridan kelib chiqib, hayotga bo‘lgan qarashlarini shakllantirishi va insoniylik tamoyillarini anglash jarayoni haqida hikoya qiladi.

Xayriddin Sultonning bu hikoyasida realistik yondashuv ustuvorlik qiladi. Asardagi voqealar hayotiy mantiqqa asoslangan bo‘lib, unda xalq hayoti, milliy qadriyatlar va tarixiy kontekst sezilarli darajada aks etgan. Yozuvchi hikoya davomida qahramonning ichki kechinmalarini, uning ruhiy olamidagi o‘zgarishlarni teran olib beradi. Bunda monolog va ichki mushohada elementlarining ustalik bilan qo‘llanilishi hikoyaning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Qahramonning hayot yo‘lidagi kechinmalari orqali insonning o‘zligini anglash,adolat va haqiqat tushunchalariga erishish yo‘li yoritiladi.

Hikoyada konflikt asosan ichki kechinmalar orqali ifodalanadi. Asarda qahramon hayotiy sinovlar oldida o‘zining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqadi, o‘zini tahlil qiladi. Uning ichki olami va tashqi dunyo o‘rtasidagi zidliklar hikoyaning asosiy dramatik nuqtasini tashkil etadi. Shunday qilib, hikoyaning syujet qurilishi inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni yaqqol namoyon etishga qaratilgan.

Badiiy tasvir vositalari hikoyaning ifoda kuchini oshirishda muhim o‘rin tutadi[6.57]. Xayriddin Sulton o‘ziga xos poetik ifodalar, metaforalar va qiyoslashlar orqali hikoyaga estetik jihatdan joziba bag‘ishlaydi. Ushbu uslub qahramonning hissiy holatini yanada chuqurroq his etishga yordam beradi. Bunda adabiy-badiiy tilning nafisligi, tasviriy qudrati va emotSIONAL ta’sirchanligi yaqqol seziladi.

"G‘ulomgardish" hikoyasi inson hayotining murakkabligi, taqdirning oldindan noma'lumligi va insonning o‘zligini anglash jarayoni haqida fikrlashga undaydigan

falsafiy asardir. Yozuvchi ushbu hikoya orqali inson ruhiy olamining nozik jihatlarini, hayotiy tajribalar natijasida shakllanadigan ichki kechinmalarini mahorat bilan tasvirlagan. Syujet qurilishi, badiiy tasvir va poetik yondashuvning uyg‘unligi hikoyani o‘zbek adabiyotidagi muhim asarlardan biriga aylantiradi.

Uning “Odamlardan tinglab hikoya” to‘plami turli hikoyalardan iborat bo‘lib, har bir hikoya aniq shaxslarning tilidan yozib olingan. Bu hikoyalarda aks etgan voqeа-hodisalar kundalik hayotimizda ro‘y bergen va hanuz sodir bo‘lib kelayotgan hodisalardir. Ushbu hayotiy hikoyalar O‘tkir Hoshimov ta’biri bilan aytganda, qissa kuchi bilan yozilgани haqiqatdir. Xayriddin Sulton hikoyalarining o‘ziga xosligi – ularning ta’sirchan tili, uslubining jozibadorligi hamda xalq maqollari bilan boyitilganligidadir. Uning hikoyalari mustahkam tuzilishi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Yozuvchining “Millatchining jazosi” hikoyasini tahlil qilish orqali asarga yuklangan mazmun, g‘oya va muallifning maqsadini anglashga harakat qilamiz. Ushbu hikoyada butun millatning dardiga aylangan ma’naviy fojiaga urg‘u berilgan. Shu sababli asarga “Millatchining jazosi” nomi berilgan.

Hikoyada “Hurriyat bo‘lib, kommunistlar demokratlarga, ateistlar dindorlarga aylangan, milliy o‘zlikni anglash siyosat darajasiga ko‘tarilgan dorilomon kunlar” tasvirlanadi. Qahramon – ilmiy xodim Jamolitdin Buzrukov o‘z pasportidagi imloviy xatoni to‘g‘rilash uchun qanday qiyinchiliklarga duch kelgani hikoyada hayajonli tarzda yoritiladi. Asarda Asqad Muxtorning “Ismimdagи bir harfning qurbaniman” degan so‘zları epigraf sifatida keltirilgan bo‘lib, bu ifoda juda chuqur ma’noga ega. Ma’lumki, mustabid tuzum davrida ko‘plab vatandoshlarimizning ism-shariflari noto‘g‘ri yozilib ketgan, bu esa inson qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi holatlardan biri bo‘lib kelgan.

Xuddi shunday muammo Jamolitdin Buzrukovning ham boshiga tushadi. U pasportdagi “d” harfini “t” harfiga almashtirish uchun murojaat qiladi, biroq bu juda murakkab jarayon ekanligi ayon bo‘ladi. Podpolkovnik Nazimov B.Y. bu muammo yechimi haqida shunday deydi: “Agar metrikani o‘zgartirib kelsangiz, xohlaganingizdek qilib, ikkita ‘d’ bilan, kerak bo‘lsa uchta ‘d’ bilan ham yozib berishimiz mumkin”[1.158].

Ushbu so‘zlardan anglash mumkinki, ismdagi kichik bir harfni to‘g‘rilash juda murakkab va qiyin jarayon bo‘lib, amalda deyarli imkonsizdek ko‘rinadi. Jamolitdin milliy g‘ururidan kelib chiqib, o‘z ismini to‘g‘rilashni talab qiladi: “Men bu masalani shunday tashlab qo‘ymayman! Yillar davomida chidagan bo‘lsam ham, yetar endi! Men milliy o‘zligimni tiklashingizni talab qilaman!” Ushbu so‘zlar hikoyaga emotsiнал kuch bag‘ishlaydi va undagi pafosni oshiradi.

Pafos deganda, insonning chuqur e’tiqod bilan yonib-kuyib so‘zlashi tushuniladi. Adabiyotshunoslikda esa pafos – g‘oyaga bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ular, ijodkorning ichki hayajoni va ko‘tarinki ruhini ifodalaydi[4.69]. Yozuvchi hikoya davomida qahramonlar xarakterini ochib berish bilan birga, asarning g‘oyaviy mazmunini ham boshqaradi.

Hikoya oxirida qahramon o‘z ismini to‘g‘rilashga erishadi, biroq bu unga qimmatga tushishi mumkin. U o‘z uyi, oilasi, mol-mulki, diplomlari va hayotining muhim jihatlaridan mahrum bo‘lish xavfi ostida qoladi. Nihoyat, u o‘ttizdan ortiq hujjatlarda o‘z ismini o‘zgartirishdan ko‘ra, noto‘g‘ri yozilgan “Jamolitdin” shakliga qaytishga majbur bo‘ladi.

Uning qaytib kelib, podpolkovnik Nazimov B.Y.dan yana o‘z ismini avvalgi holatiga qaytarib berishini so‘ragan vaqtি keltirgan maqollar esa achchiq haqiqatni ochib tashlaydi: “Hammamiz ham xom sut emgan bandamiz, jahl kelganda aql kerar, egilgan boshni qilich kesmas, bir ko‘rgan tanish, ikki ko‘rgan bilish, deydilar.” Bu maqollar hikoyaning badiiy ifoda vositalarini yanada boyitgan.

Hikoyadan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi har doim hayotdan ilhom oladi va mavjud fakt hamda hodisalarga asoslanib asar yaratadi. Adabiyot hayotning aksidir. Yozuvchi esa bevosita hayotni tasvirlash bilan cheklanmay, balki muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratadi. Xayriddin Sultonning hikoyalari inson hayoti, tirikligi va bu dunyoda yashashdan maqsad nimadan iborat ekanligini chuqur anglatishdek yuksak vazifani bajaradi.

Xayriddin Sultonning “Dunyoning siri” hikoyasi ham o‘zining chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Bu hikoyada inson hayoti, uning mavjudlik sabablari va hayot mazmuni haqida o‘ziga xos fikr yuritiladi.

Hikoya bosh qahramoni tasodifan sirli bir shaxs bilan uchrashadi. Bu shaxs unga hayotning chuqur ma’nolari haqida so‘z yuritib, inson o‘zligini anglash muhim ekanligini uqtiradi. Hikoyada insonning taqdirga bo‘lgan munosabati, hayot sinovlari oldida qanday yo‘l tutishi masalasi o‘rtaga tashlanadi[5.44].

Asarda inson hayoti sirlar bilan to‘la ekanligi, har bir hodisaning ortida bir ma’no yashiringani tasvirlanadi. Yozuvchi o‘zining falsafiy yondashuvi orqali o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Hikoya davomida muallif insonning o‘z qadrini anglash jarayonini, uning hayotiy sinovlar oldidagi ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi.

Yozuvchining badiiy mahorati hikoyaning har bir sahifasida yaqqol seziladi. Uning tili sodda, lekin mazmunan chuqur, tasviriy vositalarga boy. Xalq maqollari va hikmatli so‘zlar hikoyaga yanada joziba bag‘ishlaydi.

Hikoyadan shunday xulosa chiqarish mumkin: inson hayoti – sirlar bilan to‘la bir yo‘l. Uni to‘g‘ri anglash, har bir voqeа ortida yashiringan ma’noni kashf etish esa insonning o‘ziga bog‘liq. Yozuvchi ushbu asari orqali insonni o‘z hayotiga teranroq nazar tashlashga, uning mazmunini anglashga undaydi.

X.Sultonning ijodi zamondosh yozuvchilarining badiiy izlanishlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Uning insoniy e’tiqod va axloqiy fazilatlarni ulug‘lovchi uslubi Erkin A’zam ijodiga ham yaqin. Xuddi shuningdek, E.A’zam qalamiga xos kinoya va istehzoli uslub X.Sulton ijodida ham seziladi.

Yozuvchining badiiy-uslubiy izlanishlari uning doimiy o‘sishda bo‘lgan ijodkor ekanini ko‘rsatadi. Har bir yangi hikoyasi uslub va poetika jihatidan takrorlanmasligi, yangi badiiy usul va vositalarni qo‘llashi bunga dalildir. Xususan, X.Sulton ijodida lirik tasvir ustun bo‘lib, tarixiy mavzudagi asarlarida liro-romantik ruh kuchli seziladi.

Shunday qilib, Xayriddin Sulton o‘z ijodida hayotiy voqealar asosida badiiy syujet yaratish, lirik tasvir orqali qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish, tarixiy shaxslarning ta’sirchan obrazlarini yaratish borasida katta yutuqlarga erishgan ijodkordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Nazarov B. Hayotiylik — bezavol mezon. Adabiy o‘ylar. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. — B.224.
2. Niyatov Ch. Hozirgi o‘zbek prozasida xarakter problemasi. — Toshkent: «Fan», 1984. —B.128.
3. Normatov U. Aql va qalb chirog‘i. Suhbatlar, maqolalar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. — B. 118.
4. Normatov U. Qalb inqilobi. Maqolalar. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. — B. 352.
5. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. — Toshkent: «Ma’naviyat», 2000. — B. 109.
6. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. — Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, 2000. — B. 52.